

Muxtoraliyev Bahromjon Ilyosjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti
(Farg'ona, Uzbekistan)

ANVAR OBIDJONNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Annotatsiya. maqolada Anvar Obidjon nasrida qissa janrining o'ziga xos xususiyatlari, sujet qurilishi, yozuvchining so'z qo'llash mahorati "Kuchukka aylangan bola" qissasi tahlili misolida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: ijodkor repertuari, yumor, obraz, qissa janri, mavzu.

Taniqli bolalar yozuvchisi Anvar Obidjon ijodi tasvir uslubining o'ziga xosligi, obrazlarning hayotiyliigi, yengil yumori, ma'rifiy xarakterga egaligi hamda badiiy tasvirning ochiq ifodalanishi bilan o'z kitobxonlariga ega bo'lib kelmoqda. Shoir ijodiy faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, uning serqirra mavzularda qalam tebratganligini payqash qiyin emas. Anvar Obidjon ijodi yuzasidan fikr bildirsak doimo bir narsaga, ya'ni uning bolalar adabiyotiga yangicha bir yo'nalish olib kirganiga alohida urg'u berib o'tish joiz. Ijodkor repertuaridagi asarlar saviyasining qanday ekanligini Tursunboy Adashboyevning "80- yillarga kelib Anvar Obidjon bolalar she'riyatidagi ob-havoni bir yo'la yangiladi" deya qilgan hitobidan ham yaqqol sezishimiz mumkin.

Adibning bolalar dunyosini keng ochib bera olishining asosiy siri shundaki, ijodkor bolalar ongidan ko'ra ko'proq ularning ko'ngliga ta'sir o'tkazishga harakat qilgan. Fikrimiz isboti sifatida sevimli adibimizning "Kuchukka aylangan bola" kitobi turkumidagi "Mo'ttivoymisan, Mittivoymisan" qissasini tahlilga tortamiz. Asar hajman kichik bo'lishiga qaramay voqealar rivojining qiziqiligi, ifoda maromining soddaligi bila o'quvchini bir zumdayoq o'z qariga tortib keta oladi. Qissaning yosh kitobxonlarga qulay bo'lishi uchun asarni 16 ta kichik hikoyachalarga ajratib chiqqan. Ular "Yasama yo'lbars hangomasi", "Yurakdan chiqqan qarg'ish", "Tanishing – Aldar Xoldor!", "Kalamush bilan olishuv", "Chapchap luqum", "Pixpix Chandir janoblari", "Tovlamachining hazinasini", "Samurayning qutqarilishi", "Toshotarlar o'rdasi", "Bir o'limdan qolgan oshpaz", "Tulkinining qo'lga olinishi", "Meni pullamoqchi bo'lishgani", "Tovuq haqida qo'shiq", "Hamyonni oching, Qulqul Davedovich!", "Oddiydan oddiy jasorat", "Qisqagina jasorat" kabi hajviy hikoyachalardan iborat.

"Kuchukka aylangan bola" asari yetakchi qahramoni bo'lmish qishloqning eng to'polonchi, lekin ko'ngli toza bolasi Mo'ttivoyning yozgi ta'til vaqtida boshidan kechirgan sarguzashtlaridan hikoya qilinadi. Yozuvchi oldidagi asosiy maqsadiga ya'ni, Mo'ttivoyning qalbidagi sof bolalik tuyg'ularini ta'sirchan ifoda eta olishga erishadi. Asardagi voqealar rivojini qiziqarli va hayotiy bo'lishi uchun tabiat tasviri va hayvonlar ijrosidan mohirona foydalanilgan. Misol tariqasida qissadagi "Yasama yo'lbars hangomasi" qismini olaylik, bu parchada qahramonimiz bir tush ko'radi " - Shu desangiz, xachirdan sal chog'roq bir yo'lbarsga dangal tashlanib happa bosib yiqitibman. Keyin, uning bo'ynidan happa bo'g'volib qishloqda ko'chama-ko'cha kezaverdim. Menga ko'zi tushgan odam borki, quloq-burunli ustunga aylanib, joyida dong qotib qolaverdi." [1,7]. Shu taqlid uyg'ongan qahramonimiz xayolini qandaydir qahramonlik qilib qishloqdoshlari orasida o'zini ko'-ko'z qilish istagi chulg'aydi. Kuni bilan bosh

qotirgan Mottivoyning hayoliga ajojib go'ya keladi va shom qo'rong'usini intiqlik bilan kutadi. Qosh qoraygan vaqt og'ildagi qo'chqoriga chunon ishlov beradiki qo'ng'ir ranga bo'yali b qora kuyada yo'l-yo'l chiziq tortilgan qo'chqor naq yo'lbarsning ozi bo'ladi qoladi. Baxtga qarshi "boshqaruvni yo'qotgan qo'chqor butun qishloqni ostun-ustun qiladi. Qissani o'qir ekanmiz beihtiyor bolalik chog'larimizga undagi shoxliklarimizga g'arq bo'lamiz, Mo'ttivoy bilan birga yo'lbarsga aylangan qo'chqor ketidan birga quvamis. Manashu jihatlarining o'zidayoq yozuvchining bolalar adabiyotiga qanday chuqur kirib borganligini ko'rishimiz mumkin.

Anvar Obidjon asarlarining mavzu va mazmuni rang-barang,badiiy obraz yaratish usullari xilma-xil. Bolalar tabiatini nozik his etish juda aniq seziladi. U o'z asarlarini qanday shaklda, qaysi janrda yozishidan qat'iy nazar, bolalarning" kulgiga o'ch xalq" ekanligini hech qachon unutmaydi. "Mo'ttivoymison, Mittivoymisan" qissasidagi qahramonlar o'zlar haqida so'zlar ekan,go'yo o'z shaxsiyatlarini tasdiqlab olayotgandek bo'ladi. Shuning uchun ham o'quvchilar ular timsolida aniq "shaxs"ni ko'rgandek bo'ladi. Demak bunday asarlar kitobxon bolalarda jo'shqin,xushchaqchaq kayfiyaat uyg'otadi. U atrofga tiyranroq boqib o'zidan ham kuchsiz va kichiklar borligini bilib, ularni ehtiyot qilish,asrash-avaylash kerakligini zimdan idrol etadilar. Asarni o'qish davomida qarq'ish tufayli goh kuchukka goh bolaga aylanib hayot kechirishga majbur bo'lgan qahramonimiz,avvalari o'zi ozor berib,holijoniga qoymay yurgan hayvonlariga mehr bera boshlaydi. Ular bilan do'st tutunib qiyinchilikka uchrashgan damlarida yonlarida bo'ladi,avvalari qilgan ishlaridan afsuslanadi. Asil holiga qaytgach esa butunlay o'zgaradi. "Tulkining asir olinishi" hikoyasida yuqorida takidlab o'tgan dostlik,bir biriga yelkadosh bo'lish kabi hislatlar ilgari suriladi. Noha q tuxmatga qolgan Qorabekaning ayibsizligini isbotlash uchun birgalikda reja tuzishadi va bu orqali asil aybdorni ushlamoqchi bo'lishadi". Tulki kandikka tumshuq suqqan zahoti,umrida hech duch kelmaganqarshilikka duchor bo'ldi,shuasnoda, janggohda bir hil manzara ustma-ust takrorlana boshladi-tulki kandikdan chiqishga ketma-ket urinaverdi, biroq to'qqizta mushug-u bitta it do'ldok yog'dirayotgan toshlar zarbiga dosh berolmay, chiyyiloqlana-chiyyiloqlana, qashqalangan boshini qayta-qayta ortga olib qochaverdi" [1, 82]. Tun yarimdan og'ganda janchilar o'g'ri tulki bilan qahramonlarcha olishishadi va hamjihatlikda uni qo'lga olishadi. Mana haqiqiy do'stlik! Ijodkor shu o'rinda yuqorida takidlaganimizdek bolalarni o'zidan kichik bo'lganlarga yordam berishga ularga mehr-oqibatli bo'lishga chaqiradi.

Xulosa qilib aytganda, Anvar Obidjonning "Kuchukka aylangan bola" qissasida obraz yaratish mahorati ijodkorning tasvirlash uslubi orqali namoyon bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Anvar Obidjon. "Kuchukka aylangan bola" qissa va hikoyalar to'plami. – Toshkent: "Ziyo nashr", 2019.
2. Anvar Obidjon. Alamazon va Gulmat hangomasi: Qissalar, hajviyalar. – T.: Cho'lpon, 1992.
3. Anvar Obidjon. O'q o'tmas bolakay yoxud oltin yurak: Qissalar va hikoyalar. – T.: –Sharq, 2011. – 400 b.
4. Obidjon A. "Tanlangan she'rlar, hikoya va qissalar" –2. – Toshkent: Sharq, 2014. – B. 334.